Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

“VAFODORLIK” KONSEPTINING SHAXS MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARIDA LISONIY VOQELANISHI

Aziza Baxtiyor qizi Umurzaqova*

✉ aziza.umurzakova1999@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada “vafodorlik” konseptining shaxs ma’naviy sifatlari tizimidagi o‘rni lingvoma’naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Konseptning vijdoniy sodiqlik, ishonchlilik, munosabatlarda sodiqlik, fidoyilik, sobitqadamlik va mas’uliyatlilik kabi asosiy ma’naviy komponentlari ajratib ko‘rsatiladi. Mazkur komponentlarning shaxsning ichki e’tiqodi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy munosabatlaridagi lisoniy voqelanish xususiyatlari yoritiladi. Tahlillar asosida “vafodorlik” shaxsning ruhiy-axloqiy qiyofasini ifodalovchi integrativ lingvoma’naviy konsept sifatida tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar

vafodorlik, lingvoma’naviyatshunoslik, konsept, ma’naviy sifat, sodiqlik, fidoyilik, mas’uliyatlilik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278058

Kirish/ Introduction/ Введение

Inson ma’naviyati uning e’tiqodi, axloqiy qarashlari, qadriyatlarga munosabati hamda ijtimoiy xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan murakkab tizim hisoblanadi. Mazkur tizimga mansub tushunchalarning tilda qanday shakllanishi va voqelanishini o‘rganish antroposentrik tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, vijdon, andisha, or-nomus, muruvvat, sadoqat, vafodorlik kabi birliklar nafaqat muayyan lug‘aviy ma’noni, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq konseptual mazmunni ham ifodalaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida vafodorlik so‘zida va va’dasida qat’iy turish, munosabatlarda sadoqat va sodiqlikni namoyon etish bilan bog‘liq sifat sifatida izohlanadi [1]. Ushbu semantik mazmun “vafodorlik”ni oddiy munosabat bildiruvchi birlik sifatida emas, balki shaxsning ichki e’tiqodi, axloqiy barqarorligi va ijtimoiy ishonchliligini ifodalovchi konsept sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Lingvoma’naviyatshunoslik doirasida til birliklari shaxs ma’naviyati va uning lisoniy voqelanishi bilan aloqador holda tadqiq etiladi. Mazkur yondashuvda so‘zning faqat nominativ mazmuni emas, balki uning ma’naviy semantikasi, aksiologik yuklamasi va nutqdagi pragmatik voqelanishiga ham e’tibor qaratiladi [2]. Til birliklarini ularning ichki ma’naviy mohiyati hamda shaxs va jamiyat hayotidagi amaliy namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligi ham alohida ta’kidlanadi [3]. “Vafodorlik” konsepti ana shunday lingvoma’naviy mazmunga ega birliklardan biri bo‘lib, uning semantik tuzilishida sodiqlik, ishonchlilik, ahdga vafo, mas’uliyat, sobitlik va fidoyilik kabi belgilar o‘zaro tutashadi. Mazkur maqolaning maqsadi “vafodorlik” konseptining shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlari tizimidagi o‘rnini aniqlash, uning asosiy semantik komponentlarini ajratish hamda ushbu komponentlarning lisoniy voqelanish xususiyatlarini lingvoma’naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiflashdan iborat.

Materiallar va usullar/ Material and methods/ Материалы и методы

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilida “vafodorlik” konseptini ifodalovchi hamda unga semantik jihatdan yaqin bo‘lgan vafo, vafodor, sadoqat, sodiqlik, fidoyilik, fidokorlik, sobitqadamlik, ishonchlilik va mas’uliyat birliklari tanlandi. Qiyosiy izoh uchun ingliz tilidagi faithfulness birligining lug‘aviy mazmunidan ham foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida 2023-yilda nashr etilgan olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[1; 4; 7; 8], O. Shukurov va B. Bahriddinovaning “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” [6], shuningdek, lingvoma’naviyatshunoslikning nazariy masalalariga oid ilmiy-publitsistik manbalardan [2; 3; 9] foydalanildi.

Maqolada tavsifiy, definitsion, komponent tahlil, konseptual tahlil hamda semantik-oppozitiv tahlil usullari qo‘llanildi. Definitsion tahlil yordamida “vafodorlik” va unga yaqin birliklarning lug‘aviy mazmuni aniqlandi. Komponent tahlil asosida mazkur konsept tarkibidagi takrorlanuvchi ma’naviy-axloqiy semalar ajratildi. Konseptual tahlil ushbu semalarning shaxs ma’naviy sifatlari tizimidagi o‘rnini belgilashga xizmat qildi. Semantik-oppozitiv yondashuv orqali esa “vafodorlik”ning mazmuniy chegaralari uning xiyonat va bevafolik kabi zid tushunchalari bilan qiyoslash asosida aniqlashtirildi.

(1)

Natijalar va muhokama/ Results and discussion/ Результаты и обсуждение

Tahlil natijalari “vafodorlik” konseptining birgina sodiqlik ma’nosi bilan cheklanmasligini, balki shaxs ma’naviy-axloqiy qiyofasining bir necha o‘zaro bog‘liq belgilarini birlashtirishini ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida uning vijdoniy sodiqlik, ishonchlilik, munosabatlarda sodiqlik, fidoyilik, sobitqadamlik va mas’uliyatlilik kabi asosiy komponentlari ajratildi.

Komponent	Asosiy mazmuni	Lisoniy voqelanish namunalari
Vijdoniy sodiqlik	E’tiqod va axloqiy qarashlariga vijdonan sodiq qolish	so‘zida turmoq, ahdga vafo qilmoq
Ishonchlilik	Bildirilgan ishonchni oqlash	ishonchni oqlamoq, omonatga xiyonat qilmaslik
Munosabatlarda sodiqlik	Shaxs yoki qadriyatga barqaror munosabat	do‘stga vafo, elga sadoqat
Fidoyilik	Shaxsiy manfaatdan yuqori turuvchi sadoqat	jon fido qilmoq, fidokorona xizmat
Sobitqadamlik	Sharoit o‘zgarganda ham pozitsiyani saqlash	e’tiqodida sobit qolmoq
Mas’uliyatlilik	Burch va majburiyatni ongli bajarish	burchga sadoqat, kasbga vafodorlik

1-jadval. “Vafodorlik” konseptining shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarida voqelanuvchi asosiy komponentlari.

Avvalo, “vafodorlik”ning muhim semantik komponentlaridan biri vijdoniy sodiqlikdir. Mazkur sifat shaxsning muayyan munosabat, e’tiqod yoki qadriyatga faqat tashqi talab tufayli emas, balki ichki axloqiy e’tiqodi asosida sodiq qolishini anglatadi. Shu jihatdan vafodorlikning ma’naviy asosida shaxsning o‘z so‘zi, va’dasi, e’tiqodi va tanlagan axloqiy pozitsiyasiga xiyonat qilmasligi yotadi. Ahdga vafo qilmoq, so‘zida turmoq, e’tiqodiga sodiq qolmoq kabi birliklarda mazkur semantik belgi yaqqol namoyon bo‘ladi. “Vafodorlik”ning konseptual chegarasi uning zid qutbi hisoblangan xiyonat tushunchasi bilan qiyoslanganda yanada aniq ko‘rinadi. “Xiyonat” lug‘aviy jihatdan ahdni buzish, bildirilgan ishonchni suiiste’mol qilish kabi ma’nolar bilan tavsiflanadi [4]. Demak, vafodorlikning semantik yadrosidagi ahdni saqlash, ishonchni oqlash, munosabatda sobit qolish belgilari xiyonatdagi ahdni buzish, ishonchga putur yetkazish belgilariga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bunday oppozitsiya vafodorlikning kuchli aksiologik mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchi komponent — ishonchlilik. Vafodor shaxs ijtimoiy munosabatlarda ishonchli subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ishonchni oqlash, omonatga xiyonat qilmaslik, so‘zida turish kabi birikmalar ushbu sifatning o‘zbek tilidagi lisoniy ifodasidir. Bunda shaxsning so‘zi, niyati va amaliy xatti-harakati o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ishonchlilik vafodorlikning faqat ichki holatini emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarda kuzatiladigan amaliy ko‘rinishini ham ifodalaydi.

Uchinchi komponent — munosabatlarda sodiqlik. O‘zbek tilidagi vafodorlik hamda ingliz tilidagi faithfulness birliklarining lug‘aviy tavsiflarida munosabatga barqarorlik va sodiqlik mazmuni muhim o‘rin egallaydi [1; 5]. O‘zbek

tilidagi do‘stga vafo, yorga vafo, elga sadoqat, Vatanga sodiqlik kabi birliklar konseptning turli ijtimoiy obyektlarga yo‘naltirilishini ko‘rsatadi. Ularning obyektlari turlicha bo‘lsa-da, semantik asosida munosabatni saqlash va unga sodiq qolish belgisi mavjud.

To‘rtinchi jihat — fidoyilik. “Vafodorlik” semantik maydoni fidoyi va fidokor birliklari bilan kesishadigan nuqtalarga ega. Ma’nodosh birliklar tarkibida sodiq, sadoqatli, vafodor, fidokor leksemalarining bir semantik maydonda qayd etilishi [6] ularning umumiy sodiqlik va bag‘ishlanish semalariga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq mazkur birliklarni qat’iy intensivlik shkalasi sifatida baholashdan ko‘ra, ayrim kontekstlarda fidokorlikning shaxsiy manfaatdan voz kechish yoki o‘zini muayyan maqsadga bag‘ishlash semasini kuchliroq ifodalashini qayd etish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan fidoyilik vafodorlikning ayrim nutqiy vaziyatlarda yuqori darajadagi ma’naviy namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin.

Beshinchi komponent — sobitqadamlik. Izohli lug‘atda sobit qolmoq maqsad yoki qarashdan og‘ishmay turish, sobitqadamlik esa o‘z maqsadi va maslagidan chekinmaslik mazmunida izohlanadi [8]. Mazkur birliklarda mavjud mustahkamlik, qat’iyat, og‘ishmaslik semalari vafodorlikning vaqt va sinov omiliga bog‘liq xususiyatlarini ochib beradi. Vafodorlik shunchaki bir martalik tanlov emas, balki turli vaziyatlarda muayyan axloqiy pozitsiyani saqlab qolishni ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan sobitqadamlik vafodorlikning barqarorligini ta’minlovchi ma’naviy komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Oltinchi komponent — mas’uliyatlilik. Vafodorlikning ushbu qirrasi shaxsning o‘z zimmasiga olgan burch va majburiyatlarini ongli ravishda bajarishi bilan bog‘liq. Vatanga sodiqlik, burchga sadoqat, kasbga vafodorlik kabi birikmalarda shaxsning muayyan qadriyat yoki faoliyatga munosabati mas’uliyat bilan uyg‘unlashadi. Demak, vafodorlik faqat hissiy bog‘lanish yoki xayrixohlikni emas, balki tanlangan munosabatdan kelib chiqadigan majburiyatni anglash va uni bajarishga tayyorlikni ham qamrab oladi.

Tahlil natijalari mazkur komponentlarning alohida mavjud bo‘lishi bilan birga, “vafodorlik” konsepti doirasida o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, ahdga vafo birligida vijdoniy sodiqlik va mas’uliyat, do‘stga vafodorlikda munosabatlarda sodiqlik va ishonchlilik, Vatanga sadoqatda esa sodiqlik, mas’uliyat va ayrim kontekstlarda fidoyilik semalari bir vaqtda aktuallashishi mumkin. Lingvoma’naviy nuqtayi nazardan “vafodorlik”ning muhim xususiyati shundaki, uning mazmuni faqat shaxs ongidagi abstrakt tushuncha sifatida qolmaydi. U so‘zida turish, ahdga vafo qilish, ishonchni oqlash, burchga sodiq qolish kabi lisoniy birliklar hamda ular ifodalaydigan xatti-harakat modellari orqali voqelanadi. Til birliklarida xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va ma’naviy qarashlarining aks etishi haqidagi qarashlar [9] ham “vafodorlik”ning lisoniy-ma’naviy tabiatini tavsiflash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, tahlil doirasida “vafodorlik” konsepti shaxs ma’naviy sifatlarining birgina ko‘rinishini emas, balki o‘zaro tutashgan bir necha axloqiy belgilar majmuasini birlashtirishi kuzatiladi. Shu xususiyati uning integrativ lingvoma’naviy konsept sifatida tavsiflanishiga asos beradi.

Xulosa/ Conclusion/ Заключение

Olib borilgan tahlil “vafodorlik” konseptining shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlari tizimida murakkab va ko‘p komponentli tuzilishga ega ekanini ko‘rsatdi. Konseptning semantik tarkibida vijdoniy sodiqlik, ishonchlilik, munosabatlarda sodiqlik, fidoyilik, sobitqadamlik va mas’uliyatlilik kabi belgilar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu komponentlar ahdga vafo qilmoq, so‘zida turmoq, ishonchni oqlamoq, do‘stga vafodorlik, Vatanga sodiqlik, burchga sadoqat kabi birliklarda turli darajada lisoniy voqelanadi. “Vafodorlik”ning xiyonat va bevafolik kabi zid tushunchalar bilan semantik qarama-qarshiligi uning aksiologik tabiatini yanada aniq namoyon etadi. Mazkur konsept shaxsning faqat hissiy munosabatini emas, balki uning e’tiqodi, vijdoni, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘liq barqaror ma’naviy pozitsiyasini ham ifodalaydi. Shu sababli “vafodorlik”ni shaxsning ruhiy-axloqiy qiyofasini aks ettiruvchi integrativ lingvoma’naviy konsept sifatida tavsiflash mumkin. Kelgusida mazkur konseptning kollokatsion, assotsiativ va diskursiv voqelanishini ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy o‘rganish uning milliy-madaniy hamda lingvoma’naviy xususiyatlarini yanada kengroq aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi: 6 jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 648.

[2] Mengliyev B., Karvonli H. Yangi O‘zbekiston: O‘zbek amaliy tilshunosligi ravnaqi // Ma’rifat. – 2026. – 6-may. – № 18 (9603). – B. 3.

[3] Yo‘ldoshev F. Milliy ruh va til uyg‘unligi talqini // Ma’rifat. – 2026. – 6-may. – № 18 (9603). – B. 5.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi: 6 jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 54.

[5] Longman Dictionary of Contemporary English Online. Faithfulness [Elektron resurs]. – URL: https://www.ldoceonline.com/dictionary/faithfulness (murojaat qilingan sana: 11.04.2025).

[6] Shukurov O., Bahriddinova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent, 2006. – B. 37.

[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi: 6 jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 132.

[8] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi: 6 jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 692.